

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA (O'QUVCHILARGA) XORIJIY TILLARNI INTERFAOL USULLARDA O'RGATISH METODLARI

Xolmatova Hamrobi Shermurod qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 2 fakulteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi

N.N. Zubaydova

Ilmiy rahbar

Annatsiya: *Bugungi kunda mamalakatimizda ,xorijiy tillarni o'rganishga va malakali kadrlarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Shu sababli ko'pchilik talaba yoshlar xorijiy tillarni o'rganishda a'nanaviy metodlardan ko'ra interfaol metodlar orqali chet tillarini tez va samarali usulda o'rganishmoqda . Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishda a'nanaviy va interfaol metodlarning farqi,usullari haqida ayrim ma'lumotlar berildi.*

Kalit so'zlar: *xorijiy tillarga bo'lgan talab , yangi ped texnologiyalar ,interfaol va a'nanaviy metodlarlar,tarqatmalar, o'yinlar.*

Bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalarga ta'lim jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda.Ulardan xorijiy tillarni o'rganishda keng foydalanilmoqda.Inovatsion pedagogik texnologiyalar dars samaradorligini va sifatini oshirishga asos bo'lmoqda.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda interfaol metodlar o'zining qulayligi, qiziqarliligi va samaradorligi bilan a'nanaviy metodlardan ko'ra keng foydalanilmoqda.

Interfaol metodlar-ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro faoliyatini ta'minlovchi, ularni faolashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi hamda ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani oshirishga yo'naltirilgan metodlardir.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi- ta'lim jarayoni uchun eng qulay muhit yaratish orqali , o'quvchining faol , erkin , ijodiy fikr yaratishini ta'minlash. O'quvchining o'z qiziqishlarini ,ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga muhit yaratishdir.Ushbu usulda nafaqat o'qituvchi ,balki o'quvchi ham dasr jarayonida birdek faol harakat qiladi. Natijada , dars mashg'ulotlari barcha uchun tushunarli , aniq va samarali usulda olib boriladi.

Interfaol metodlarning afzaliklari shundaki,unda o'quchilar chet tillarini o'rganishda noan'anaviy usullarda ya'ni baxs , munozara orqali ma'lumotlarga ega bo'ladi. Chet tillarni o'rgatish jarayonida ko'rgazmali vositalar ya'ni taqdimot,videorolik, audio materiallar, turli xil qiziqarli va diqqatni oshiradigan mashqlar va tarqatma materiallardan foydalanish nafaqat kichik yoshdagi balki barcha talabalarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni va dars samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. "Aql charxi"o'yini, "(Brain sharpener game), "Ranglar so'zlaydi

metodi " (Colors speak method), "Callan method" (Kallan usuli metodi) va "Qadam ba qadam" (Step by Step) metodi va turli xil boshqotirmalar va savol -javob kartochkalari kiradi. Ushbu usullarning qo'lashning asosiy maqsadi -o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni o'rgatish va shakllantirish.

"Aql charxi" - bu o'yinda o'quvchilarning topqirligi chaqqonligi asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar rasm orqasidan raqam qidirishadi. Rasmlar ingliz tilidagi mevalar nomlanishi yoki hayvonlar nomi bilan yozilib orqasiga raqamlar yashiriladi. Raqam qidirish uchun 60 sekund vaqt beriladi. Sinf o'quvchilari 2 guruxga bo'linadi. Har bir guruxdan bitta- bittadan o'quvchi chiqib raqam tanlaydi .Eng ko'p raqam topgan gurux g'o'lib bo'ladi.

"Callan metodi" - ingliz tilini o'rganishning tez, qiziqarli va oson usuli bo'lib, o'quvchilarning tinglash va gapirish ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan. Uni 1960-yillarda Angliyada Robin Kallan ismli odam ixtiro qilgan. Bu metod barcha millat talabalari, kichik yoshdagi o'quvchilarga va barcha o'qish maqsadlari uchun javob beradi. Bu metod takrorlash va tezlikka asoslanadi, bu ikki narsa tilni o'rganishda muvaffaqiyatga kafolat beradi. Callan metodining boshqa metodlardan afzalligi va farqi shundaki , ushbu usul orqali boshlang'ich ta'lim o'quvchilari balki barcha til o'rganuvchilari xorijiy tillarni tez va kam vaqt mobaynida va ko'p pul sarflamay samarali o'rganishadi. Dars mashg'ulotlarida o'quvchilar sinfga kirgandan boshlab ingliz tilida nutq so'zlashadi va ravon nutq so'zlaganlar rag'batlantiriladi. Til o'rganuvchilar dars davomida ingliz tilini faol mashq qiladilar, dars davomida gapiradilar. Callan usulida darsning tuzilishi to'rt bosqichga bo'linadi:

1. Yo'naltirilgan suhbat. Bir qator savol-javoblar orqali oldingi darslarda o'rgatilgan lug'atni tez sur'atda qayta ko'rib chiqish ...

2. Birgalikda o'qish. Darsdagi ayrim matnlari o'qituvchi bilan birgalikda o'qiydilar.

3. Diktant. ya'ni o'qigan matnlaridagi so'zlarni o'qituvchi o'qib tursa o'quvchilar uni eshitish orqali diktant qilib yozadilar.

4 Yangi lug'atlarni topish . Matn ichidagi yangi so'zlarni o'rganishadi va ularni yozilishi tallafuzini ,ma'nosini o'rganadi.

"Callan metodi " til o'rganilsa o'quvchilar so'zlar ham o'qilishi, yozilishi va aytilishini bir vaqtning mobaynida o'zlashtiradilar

"Step by step" metodi bu (qadam ba qadam) metodi hisoblanib o'quvchilardan o'tilgan mavzu bo'yicha bilimlarini takrorlash olish uchun foydalaniladi. Bu o'yinda o'quvchilar ma'lum bir mavzu haqida so'zlar aytishi kerak. Misol uchun "Animals" hayvonlar haqida so'zlar aytishlari kerak. Ya'ni har bir guruxdan 2 tadan o'quvchi chiqadi va ular "Hayvonlarning "ingliz tilida qanaday nomlanishini aytishadi. Bir marotaba aytilgan so'z qayta takrorlanmasligi kerak. O'yin quydagicha boshlanadi : 2 o'quvchi sinf doskasi oldiga keladi va hayvonlarni ingliz tilida aytadi. Masalan :1-o'quvchi:Lion-(she'r) 2-o'quvchi:Zebra-(zebra) tarzida aytiladi. Har bir aytilgan so'zdan

keyin bir qadam oldinga yuriladi. Eng ko'p so'z aytgan o'quvchi g'olib bo'ladi va u rag'bat kartochkasi bilan taqdirlanadi.

“Ranglar so'zlaydi” metodi - bu metod o'quvchilardan o'tgan mavzuni takrorlash va narsalar va ma'lumotlarni bir biridan farqini ajrata olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'yin shartida o'quvchilarga qizil sariq va yashil kartochkalar beriladi. Qizil (sabzavotlar), Sariq (poliz ekinlari) va Yashil (mevalar) uchun foydalaniladi. Va o'tilgan mavzu ya'ni, "Meva va sabzavotlar" haqida so'zlar o'rganiladi. O'qituvchi o'quvchilarga mevalarni ko'rsatsa, o'quvchilar yashil kartochkani ko'rsatadi. Agar o'qituvchi sabzavotlarni ko'rsatsa, o'quvchilar qizil kartochkani ko'rsatadi. Agar o'qituvchi poliz ekinlarini ko'rsatsa, o'quvchilar yashil kartochkani ko'rsatadi. Ushu o'yin orqali o'tilgan mavzular qiziqarli va samarali takrorlandi. O'quvchi uchun ham vaqtni to'g'ri taqasimlashga xizmat qiladi.

Dars mashg'ulotlarini qiziqarli tashkil etish uchun o'qituvchi tomonidan turli xil ko'rgazmali vositalar ya'ni tadqiqot, videorolik va boshqa manbalardan foydalanish dars mashg'ulotlarini sifatli va DTS talablari asosida

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars jarayonini qiziqarli va sifatli tashkil etishda interfaol usullardan foydalanish darsning sifatini va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Chet tillarni interfaol usullarda boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun tez oson o'rganish imkonini beradi. Dars mashg'ulotlarini qiziqarli tashkil etish uchun o'qituvchi tomonidan turli xil ko'rgazmali vositalar ya'ni tadqiqot, videorolik va boshqa manbalardan foydalanish dars mashg'ulotlarini DTS talablari asosida tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dars jarayonini qiziqarli va sifatli tashkil etishda interfaol usullardan foydalanish darsning sifatini oshiribgina qolmay o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Chet tillarni interfaol usullarda o'rganish boshlang'ich ta'lim o'quvchilari va til o'rganuvchilari uchun tez va oson eng asosiysi samarali o'rganish imkonini beradi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. arxiv.uz sayti.
2. Google. <https://www.callanschool.info> (Callan metodi uchun).
3. YouTube. (ranglar so'zlaydi metodi) <https://youtube.com/watch?v=PBVX9Xw6-SU&si=hD9vCy387Dt7sRBW>